

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

kurs modullarini ishlab chiqish, baholash rubrikalarini validatsiya qilish va ta’lim natijalarining barqarorligini empirik tekshirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Волков Г.Н. Этнопедагогика: учебник для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений. 2-е изд., испр. и доп. М.: Академия, 2000. 176 с.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 40 с.
3. Deardorff D.K. Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization // Journal of Studies in International Education. 2006. Vol. 10, No. 3. P. 241–266. DOI: 10.1177/1028315306287002.
4. Banks J.A. An introduction to multicultural education. Boston: Pearson/Allyn and Bacon, 2008. 164 p.
5. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. Clevedon: Multilingual Matters, 1997. 124 p. ISBN 185359377X.
6. Council Recommendation of 22 May 2018 on key competences for lifelong learning (Text with EEA relevance) // Official Journal of the European Union. 2018. C 189.
7. UNESCO. Intercultural competences: conceptual and operational framework. Paris: UNESCO, 2013. 44 p.
8. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance: adopted by the General Conference of UNESCO at its twenty-eighth session, Paris, 16 November 1995. Paris: UNESCO, 1995.
9. Kolb D.A. Experiential learning: experience as the source of learning and development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. 256 p.
10. UNESCO-UNEVOC. Competency-based education (CBE): glossary entry. URL: <https://unevoc.unesco.org/bilt/tvetipedia+glossary/lang=en/show=term/lang=en/term=Competency-based+education> (murojaat sanasi: 17.02.2026).

SH.SEYTOVNING “QASHQIN” QISSASIDA BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Jawilbaeva Nurzada

Ajiniyoz nomidagi NMPI qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida tayanich doktoranti

Annotasiya: Mazkur maqolada Sh.Seytovning “Qashqin” qissasida badiiy obraz yaratish mahorati tahlil qilinadi. Asarda yozuvchi tomonidan inson ruhiyatining murakkab qatlamlari, qahramonlarning ichki kechinmalari hamda ijtimoiy-tarixiy muhit ta’siri chuqur yoritilgani ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi. Xususan, bosh qahramon Nesibeli obrazi orqali qo‘rquv, iztirob, umid va yashash uchun kurash kabi psixologik holatlar tahlil etiladi. Tadqiqot davomida muallifning obraz yaratishda psixologik tasvir, ichki monolog, portret, detal hamda peyzaj tasviridan samarali foydalangani aniqlanadi. Shuningdek, asarda ayol obrazi va uning ijtimoiy muhitdagi o‘rni alohida badiiy-estetik ahamiyat kasb etishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, psixologik tasvir, ichki monolog, portret, detal, peyzaj

Аннотация: В данной статье анализируется художественное мастерство создания образов в повести «Қашқын» Ш.Сейтов. Особое внимание уделяется глубокому раскрытию внутреннего мира персонажей, их психологических переживаний и влиянию социально-исторической среды. На примере образа главной героини Несибели исследуются такие состояния, как страх, страдание, надежда и борьба за выживание. В ходе анализа выявляется, что автор эффективно использует психологический анализ,

внутренний монолог, портретные характеристики, художественные детали и пейзажные описания для создания выразительных образов. Также подчеркивается значимость женского образа и его роль в социальной среде произведения.

Ключевые слова: художественный образ, психологизм, внутренний монолог, портрет, деталь, пейзаж

Abstract: This article analyzes the artistic mastery of character creation in the novella “Qashqin” by Sh.Seytov. The study focuses on the deep depiction of human psychology, inner experiences of the characters, and the influence of the socio-historical context. In particular, the character of Nesibeli is examined to reveal complex emotional states such as fear, suffering, hope, and the struggle for survival. The research shows that the author effectively employs psychological analysis, internal monologue, portrait description, artistic detail, and landscape imagery to create vivid and realistic characters. Additionally, the role of the female character and her position within the social environment are highlighted as significant artistic elements.

Keywords: artistic image, psychological depiction, internal monologue, portrait, detail, landscape.

Qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotida inson ruhiyatini chuqur va har tomonlama tasvirlash, murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayonlar fonida badiiy obraz yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XX asr qoraqalpoq nasrida inson va jamiyat o’rtasidagi ziddiyatlar, shaxsning ichki kechinmalari hamda taqdir sinovlari orqali yoritilgan asarlar alohida o’rin tutadi. Shu jihatdan Sh.Seytov ijodi o’zining badiiy-estetik qimmatini, obrazlar tizimining mukammalligi va psixologik tasvirning chuqurligi bilan ajralib turadi.

Yozuvchining “Qashqin” qissasi inson hayotidagi fojiaiy holatlar, majburiy ko’chish, qo’rquv va iztiroblar orqali shakllangan murakkab ruhiy kechinmalarni tasvirlashga bag’ishlangan muhim asarlardan biridir. Asarda nafaqat voqealar rivoji, balki qahramonlarning ichki dunyosi, ularning ongida kechayotgan ruhiy jarayonlar ham badiiy jihatdan chuqur tahlil etiladi. Muallif badiiy obraz yaratishda psixologik tahlil, portret tasviri, detallar va muhit tasviridan samarali foydalanib, obrazlarni jonli va hayotiy qilib gavdalantiradi.

“Qashqin” qissasida bosh qahramon Nesibeli obrazi orqali insonning og’ir ijtimoiy sharoitdagi holati, uning qo’rquv, umid, iztirob va yashash uchun kurash kabi murakkab kechinmalari yoritiladi. Ayniqsa, qahramonning ichki monologlari, ruhiy iztiroblari va tashqi harakatlari o’rtasidagi uyg’unlik yozuvchining yuksak badiiy mahoratini ko’rsatadi. Shu bilan birga, asarda tasvirlangan ijtimoiy muhit – notinch davr, xavf-xatar va insoniy qadriyatlarining sinovdan o’tishi obrazlarning yanada chuqur ochilishiga xizmat qiladi.

Sh.Seytov “Qashqin” qissasida badiiy obraz yaratishda eng muhim vositalardan biri psixologik tasvirdir. Yozuvchi qahramonning ichki dunyosini ochishda uning ruhiy kechinmalari, qo’rquv, iztirob, umidsizlik va yashash instinkti o’rtasidagi ziddiyatlarni chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa, Nesibeli obrazi orqali inson psixikasining chegaraviy holatlari yorqin aks ettirilgan. Qahramonning qochish jarayonidagi ruhiy holati quyidagi tasvirda yaqqol namoyon bo’ladi: “Kókiregi qash-qash dep sirildaydi”[1:4] Bu yerda takror (repetitsiya) vositasi orqali ichki qo’rquv va vahima kuchaytirilgan. Nafas olish jarayonining tasviri orqali qahramonning ruhiy bosimi fiziologik holat bilan uyg’unlashtiriladi. Bu esa psixologik realizmning yorqin namunasi hisoblanadi.

Shuningdek, qahramonning holdan toyishi, ruhiy va jismoniy charchoqning birlashuvi quyidagicha ifodalanadi: “Miyi awiljip barip, shoqalaq qumga órmeley bergende jalp ete qaldi.”

Mazkur tasvir orqali inson ongining sustlashuvi, hayotiy energiyaning so’nishi, shu bilan birga yashash uchun oxirgi kuchni safarbar etish jarayoni badiiy aks ettirilgan. Demak, yozuvchi obrazni yaratishda ichki monolog va psixologik tahlilni ustuvor vosita sifatida qo’llaydi.

Yozuvchi obrazni individualizatsiya qilishda portret tasviridan ham keng foydalanadi. Bunda tashqi ko‘rinish orqali ichki ruhiy holatni ochish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, asarda qo‘rquv timsoli sifatida berilgan obraz tasviri: “Alpisqa iyek atkan ġarriniń qantalasqan shegir kózleri qarangıda eleslep ketedi”[1:24] Bu yerda ko‘z detalining berilishi bejiz emas. Ko‘z – ruhiyat ko‘zgusi sifatida qahramon ongidagi qo‘rquvni kuchaytiradi. Portret tasviri psixologik holatni yanada chuqurlashtiruvchi vositaga aylanadi.

Shuningdek, Nesibeli harakatlari orqali ham uning xarakteri ochiladi: “Shoqalaqtan shoqalaqqa ġúdiklenip órmeleydi”. [1:15] Bu tasvir qahramonning ojizligi bilan birga uning tirik qolishga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Demak, yozuvchi detal va harakat tasvirini uyg‘unlashtirib, dinamik obraz yaratadi.

Asarda peyzaj (tabiat tasviri) oddiy fon vazifasini bajarmaydi, balki obrazning ruhiy holatini ochuvchi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Keng sahro, sukunat va bo‘shliq qahramonning ichki holatini aks ettiradi: “Ya jortqan ańniń qorıldısı, ya ushqan qus qanatlarınıń sıpsını esitilsesh”[1:12] Mazkur tasvir orqali muhitning vahimali sukunati, xavfli va noaniq holati beriladi. Bu esa qahramonning ruhiy iztiroblarini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, tun tasviri ham muhim semantik yuklama kasb etadi. Qorong‘ilik – qo‘rquv, noma’lumlik va umidsizlik ramzi sifatida xizmat qiladi. Shu orqali yozuvchi tabiat va inson ruhiyatini parallel holda tasvirlaydi.

“Qashqin” qissasida obrazlar faqat individual xarakter sifatida emas, balki muayyan tarixiy davr mahsuli sifatida ham talqin etiladi. Asarda tasvirlangan notinch ijtimoiy muhit – zo‘ravonlik, bosqin va beqarorlik inson taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nesibeli obrazi oddiy qochqin emas, balki davr qurboni sifatida gavdalanadi. Uning harakati, qo‘rquvi va umidlari jamiyatdagi notinchlik bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan yozuvchi obrazni ijtimoiy kontekstda ochib beradi. Asarda xalq hayoti, kambag‘allik, adolatsizlik va zo‘ravonlik kabi muammolar ham obrazlar orqali yoritiladi. Bu esa qissaning ijtimoiy-tanqidiy ruhini kuchaytiradi.

Qissada ayol obrazi alohida badiiy-estetik ahamiyatga ega. Nesibeli obrazi orqali ayolning jamiyatdagi o‘rni, uning zaifligi va ayni paytda ichki kuchi ochib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, Sh.Seytovning “Qashqin” qissasi qoraqalpoq nasrida badiiy obraz yaratish mahoratining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda yozuvchi inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini chuqur tahlil etib, qahramonlarning ichki kechinmalarini hayotiy va ta’sirchan tarzda tasvirlashga erishgan.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, muallif obraz yaratishda bir necha muhim badiiy vositalardan samarali foydalanadi. Jumladan, psixologik tasvir va ichki monolog orqali qahramon ruhiyati ochib beriladi, portret va detal tasviri orqali xarakter individuallashtiriladi, peyzaj va muhit tasviri esa obrazning ichki holati bilan uyg‘un holda beriladi. Bu esa asarda badiiy yaxlitlikni ta’minlaydi.

Ayniqsa, Nesibeli obrazi orqali ayol taqdirining fojiaiy jihatlarini, uning ijtimoiy muhit ta’siridagi og‘ir hayotiy sinovlari chuqur yoritilgan. Qahramonning qo‘rquv, iztirob, umid va yashash uchun kurash kabi kechinmalari realistik va psixologik jihatdan asoslangan holda ifodalangan. Bu esa yozuvchining yuqori darajadagi badiiy mahoratini ko‘rsatadi. Shuningdek, qissada tasvirlangan ijtimoiy-tarixiy muhit obrazlarning shakllanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Yozuvchi davr ruhini, xalq hayotidagi ziddiyatlarni va inson taqdiriga ta’sir etuvchi omillarni obrazlar orqali ochib beradi. Natijada asar nafaqat badiiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘ladi. Umuman olganda, “Qashqin” qissasida yaratilgan obrazlar tizimi o‘zining hayotiyliigi, psixologik chuqurligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Ushbu asar Sh.Seytov ijodida badiiy obraz yaratish san’atining yuksak darajada namoyon bo‘lganini tasdiqlaydi hamda qoraqalpoq adabiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar:

1. Seytov Sh. Qashqin. Kóp edi ketken tırnalar. –Nókis: Jeti Íqlım, 2021.
2. Axmetov S. Esenov J. Jarımbetov Q. Ádebiyattanıw atamalarınń orıssha-qaraqalpaqsha túsındırme sózligi. - Nókis: Bilim, 1994.

URUSH YILLARIDAGI AYOLLAR OBRAZI: BADIY TALQIN, GENDER ROLI VA MA’NAVIY ZIDDIYATLAR

(“Alvido, qurol!” va “Buyuk Getsbi” romanlari misolida)

Qodirova Muhabbat

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” va Frensis Skott Fitzgeraldning “Buyuk Getsbi” romanlarida urush yillaridagi ayollar obrazining badiiy talqini o’rganiladi. Tadqiqotda feministik adabiy tanqid, gender nazariyasi va psixoanalitik yondashuv asosida ikkala romandagi ayol qahramonlarning ijtimoiy mavqei, ichki ziddiyatlari va ma’naviy yo’qotishlari tahlil etiladi. Maqolada Katrin Barkli va Deyzi Buchanan obrazlari orqali urush davri ayollariga xos gender rollarining qanday shakllanishi, bu rollar qahramonlar ruhiyatida qanday izlar qoldirganligi va muallif badiiy niyatiga muvofiq ayol timsolining qanday vazifalar bajarishi ko’rsatiladi.

Kalit so’zlar: ayol obrazi, gender roli, ma’naviy ziddiyat, feministik tanqid, urush adabiyoti, “Yo’qotilgan avlod”, Heminguey, Fitzgerald.

Kirish. Birinchi jahon urushi (1914–1918) nafaqat geosiyosiy xaritani o’zgartirdi, balki u ayollar hayotidagi stereotiplarni ham larzaga keltirdi. Millionlab ayollar an’anaviy uy chegarasidan chiqib, turli sohalarda davrning ehtiyojiga qarab ishlay boshlashdi. Bundan tashqari, ijtimoiy tashkilotchilik va xayriya ishlarida faol qatnashdi. Bu o’zgarishlar nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ma’naviy va psixologik ahamiyat kasb etdi, ya’ni ayollar o’z qadriyatlarini, imkoniyatlari va jamiyatdagi o’rni haqidagi tasavvurlarini qayta ko’rib chiqdi.

“Yo’qotilgan avlod” adabiyoti bu o’zgarishlarni o’ziga xos badiiy tasvir bilan aks ettirdi. Ernest Heminguey va Frensis Skott Fitzgeraldlar bu avlodning eng yorqin vakillari bo’lib, ular ayol qahramonlarni o’z romanlarining markaziga qo’yilar va ular orqali urush davri insoniyatining ma’naviy ahvolini, gender munosabatlarining yangi qiyofasini va qadriyatlar inqirozini ifodalashga harakat qildilar. Biroq ikkala muallif bu masalaga turlicha yondashdi. Heminguey ayol timsolini mavjudiy fojia va fidoyilik ramzi sifatida ko’rsatsa, Fitzgerald uni ijtimoiy tanqidning keskin vositasiga aylantirdi.

Ushbu tadqiqot uchta bir-birini to’ldiruvchi nazariy tizimga asoslanadi. Birinchisi, Simon de Bovuarining ayollikni biologik emas, balki madaniy mahsulot sifatida talqin qiluvchi kontsepsiyasidir [6; p. 800]. Bu yondashuv shuni ko’rsatadiki, ayollarga nisbat beriladigan passivlik, fidoyilik, go’zallik kabi xususiyatlar tabiiy mohiyatning emas, balki mafkuraviy qurilmaning mahsulotidir.

Ikkinchi nazariy asos - Judith Batlarning gender performativligi modelidir [3; p. 17]. Batler fikricha, gender bu asl yoki haqiqiy shakl emas, balki takroriy harakatlar orqali shakllanadigan tuzilma. Bu tizim Deyzining ijtimoiy rollarni o’ynash tarzini va Katrinning o’z identifikatsiyasini sevgiga yo’naltirish mexanizmini tahlil qilish uchun samarali hisoblanadi.

Uchinchi nazariy asos esa Ketı Karutning ruhiy jarohat (tavma) nazariyasidir [5; p. 154]. Karutga ko’ra, urush tajribasi to’liq so’zlanishi yoki ongli ravishda qayta ishlanishi qiyin bo’lgan